



ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDA QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Xudoyberdiyeva Odina Marubjon qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-pochta: aydinaxudayberdiyeva@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21167304>

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim jarayonida qadriyatlarni shakllantirishning dolzarb masalalari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashni shakllantirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritilgan. Zamonaviy ta’lim tizimida qadriyatlar tarbiyasining mazmuni, uning shaxs rivojlanishi va jamiyat taraqqiyotidagi o’rni, shuningdek, ta’lim muassasalarining bu boradagi mas’uliyati ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko’ra, qadriyatlarga asoslangan ta’lim shaxsning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash, ijtimoiy mas’uliyatini oshirish, milliy o’zlikni anglash darajasini rivojlantirish va ma’naviy barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Maqolada ta’lim jarayonida qadriyatlarni shakllantirish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: qadriyat, ta’lim jarayoni, ma’naviy tarbiya, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, shaxs kamoloti, yoshlar tarbiyasi, fuqarolik mas’uliyati, ijtimoiy rivojlanish, pedagogik yondashuv, ma’naviy madaniyat, globallashuv.

CURRENT ISSUES OF VALUE FORMATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract: This article examines the contemporary issues of value formation in the educational process from a scientific and pedagogical perspective in the context of globalization and digital transformation. The study focuses on the theoretical and practical aspects of fostering a value-based worldview among young people and ensuring their moral and spiritual development. Particular attention is paid to the role of national and universal values in modern education, their significance in personality development, and their contribution to social progress. Based on an analysis of relevant scientific literature, the article highlights the importance of educational institutions in cultivating value-oriented attitudes and behaviors. The findings indicate that value-based education serves as a crucial factor in strengthening civic responsibility, promoting social engagement, enhancing national identity, and ensuring the moral stability of individuals. The article concludes with scientific findings and practical recommendations aimed at improving the effectiveness of value formation within educational environments.

Keywords: values, educational process, moral education, national values, universal values, personality development, youth education, civic responsibility, social development, pedagogical approach, spiritual culture, globalization.

ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦЕННОСТЕЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ

Аннотация: В данной статье рассматриваются актуальные проблемы формирования ценностей в образовательном процессе в условиях глобализации и цифровой трансформации общества. Исследование направлено на анализ теоретических и практических аспектов духовно-нравственного воспитания молодёжи, а также формирования мировоззрения, основанного на национальных и общечеловеческих ценностях. Особое внимание уделяется содержанию ценностного воспитания в современной системе образования, его роли в развитии личности и общественном прогрессе. На основе анализа научной литературы раскрывается значение образовательных учреждений в формировании ценностных ориентаций обучающихся. Результаты исследования показывают, что образование, основанное на ценностях, способствует укреплению гражданской ответственности, социальной активности, национальной идентичности и духовной устойчивости личности. В статье представлены научные выводы и практические рекомендации по повышению эффективности формирования ценностей в образовательной среде.

Ключевые слова: ценности, образовательный процесс, духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, общечеловеческие ценности, развитие личности, воспитание молодёжи, гражданская ответственность, социальное развитие, педагогический подход, духовная культура, глобализация.

Kirish

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta’lim tizimi oldiga qo’yilayotgan talablar tubdan o’zgarib bormoqda. Fan-texnika yutuqlarining jadal rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi hamda globallashtirish jarayonlarining kuchayishi natijasida zamonaviy jamiyat nafaqat yuqori malakali mutaxassislarini, balki mustahkam ma’naviy pozitsiyaga ega, ijtimoiy mas’uliyatni chuqur anglaydigan va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxslarni tarbiyalash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ta’lim jarayonida qadriyatlarni shakllantirish masalasi pedagogika fanining eng muhim va dolzarb yo’nalishlaridan biri sifatida namoyon bo’lmoqda.

Qadriyatlar har qanday jamiyatning ma’naviy poydevorini tashkil etadi. Ular insonning hayotiy qarashlari, axloqiy mezonlari, ijtimoiy munosabatlari va xulq-atvorini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida qadriyatlar avloddan-avlodga o’tib kelgan ma’naviy meros sifatida inson kamolotida muhim o’rin egallagan. Ayniqsa, yosh avlodning dunyoqarashi va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda qadriyatlarning ahamiyati beqiyosdir. Chunki shaxsning ma’naviy qiyofasi, uning Vatanga, jamiyatga, oilaga va atrofdagi insonlarga bo’lgan munosabati aynan qadriyatlar tizimi orqali namoyon bo’ladi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida kuzatilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o’zgarishlar yoshlarning ongiga turlicha ta’sir ko’rsatmoqda. Axborot oqimining keskin ortishi, ommaviy madaniyatning keng tarqalishi, turli mafkuraviy qarashlarning internet tarmoqlari orqali tezkor yoyilishi natijasida yoshlar ongida qadriyatlar bilan bog’liq murakkab jarayonlar yuz bermoqda. Bunday sharoitda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qila oladigan, ularda mustahkam hayotiy pozitsiyani shakllantiradigan va milliy o’zlikni anglash tuyg’usini rivojlantiradigan samarali pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasida ham yoshlar tarbiyasi va ma’naviy kamoloti davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarining asosiy maqsadlaridan biri barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantirish hamda ijtimoiy faollikni rivojlantirishdan iboratdir. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham ma’naviy tarbiya, yoshlar bilan ishlash va ta’lim sifatini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgani bejiz emas.

Ta’lim jarayonida qadriyatlarni shakllantirishning dolzarbligi shundan iboratki, mazkur jarayon nafaqat shaxs kamolotiga, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviy yetuk, vatanparvar, mas’uliyatli va faol fuqarolarni tarbiyalash orqali davlat va jamiyat taraqqiyotining mustahkam poydevori yaratiladi. Shu sababli zamonaviy ta’lim jarayonida qadriyatlarni shakllantirishning mazmuni, pedagogik imkoniyatlari va samaradorligini chuqur o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida qadriyatlarni shakllantirishning mazmun-mohiyati, uning yoshlar ma’naviy kamolotidagi o‘rni hamda ta’lim muassasalari faoliyatidagi ahamiyati ilmiy manbalar va mavjud pedagogik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Ta’lim jarayonida qadriyatlarni shakllantirish masalasi bugungi kunda nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy, madaniy va ma’naviy taraqqiyot bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy ta’limning samaradorligi endilikda faqat o‘quvchilarning bilim darajasi yoki kasbiy kompetensiyalari bilan emas, balki ularda shakllangan ma’naviy fazilatlar, fuqarolik mas’uliyati, vatanparvarlik tuyg‘usi va ijtimoiy faollik darajasi bilan ham baholanmoqda. Chunki jamiyat taraqqiyotining barqarorligi ko‘p jihatdan yosh avlodning qanday qadriyatlar asosida voyaga yetayotganiga bog‘liqdir.

Qadriyat tushunchasi pedagogika, falsafa, sotsiologiya va psixologiya fanlarida inson faoliyatini boshqaruvchi muhim ma’naviy mezon sifatida talqin etiladi. Qadriyatlar shaxsning hayotiy maqsadlari, ijtimoiy munosabatlari va axloqiy qarashlarini belgilab beradigan ichki yo‘nalishlar tizimini ifodalaydi. Shu sababli ham qadriyatlar insonning nafaqat bugungi faoliyatiga, balki uning kelajakdagi qarorlari va jamiyatdagi o‘rniga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, inson shaxs sifatida shakllanish jarayonida egallagan bilimlaridan ko‘ra ko‘proq o‘zlashtirgan qadriyatlari asosida hayot kechiradi va faoliyat yuritadi [1].

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida kuzatilayotgan globallashuv jarayonlari qadriyatlar tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida dunyoning turli hududlarida yaratilayotgan madaniy mahsulotlar, turmush tarzi va g‘oyalar yoshlar ongiga tezkor ravishda kirib bormoqda. Bu holat bir tomondan dunyoqarashning kengayishiga xizmat qilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ayrim hollarda milliy qadriyatlarning zaiflashishi, tarixiy xotira va madaniy merosga bo‘lgan e’tiborning pasayishi kabi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va internet resurslarining ta’siri ostida yoshlarning ma’naviy tanlovlari murakkablashib bormoqda. Bunday sharoitda ta’lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi, balki ma’naviy yo‘naltiruvchi va qadriyatlarni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritishi zarur [2].



Bugungi kunda xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilayotgan ta’lim konsepsiyalarida ham qadriyatlar masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. UNESCO ekspertlari ta’limning asosiy vazifalaridan biri insonning qadr-qimmatini anglash, tinchlik madaniyatini rivojlantirish, bag’rikenglikni mustahkamlash va barqaror taraqqiyot g’oyalarini yoshlar ongiga singdirishdan iborat ekanligini ta’kidlaydilar [3]. Ushbu yondashuv ta’limning nafaqat iqtisodiy taraqqiyotga, balki ijtimoiy hamjihatlik va ma’naviy barqarorlikka ham xizmat qilishi lozimligini ko’rsatadi.

O’zbekiston sharoitida qadriyatlarni shakllantirish masalasi milliy taraqqiyot strategiyasi bilan chambarchas bog’liqdir. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar natijasida yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish, milliy o’zlikni anglash, tarixiy merosni asrab-avaylash va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning kuchaytirilishi, yoshlarning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularni ijtimoiy hayotga faol jalb etishga qaratilgan dasturlar bu boradagi ishlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [4].

Ta’lim jarayonida qadriyatlarni shakllantirishning samaradorligi ko’p jihatdan pedagog shaxsiga ham bog’liq. O’qituvchi nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki o’zining kasbiy va insoniy fazilatlarini bilan talabalarga namuna bo’luvchi tarbiyachi hamdir. O’qituvchining ma’naviy qiyofasi, muloqot madaniyati, kasbiy mas’uliyati va adolatli munosabati ta’lim oluvchilarning qadriyatlar tizimiga kuchli ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli zamonaviy pedagogdan yuqori kasbiy kompetensiyalar bilan bir qatorda rivojlangan ma’naviy-axloqiy sifatlar ham talab etiladi [5].

Qadriyatlarni shakllantirish jarayonida o’quv fanlarining mazmuni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim dasturlarida tarixiy xotira, milliy madaniyat, ma’naviy meros, vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati va insonparvarlik g’oyalarining aks etishi yoshlarning dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmuni orqali o’quvchilarda jamiyat va inson hayotining mazmuni haqidagi chuqur tasavvurlar shakllanadi. Biroq qadriyatlarni singdirish faqat alohida fanlarning vazifasi emas. Ushbu jarayon ta’limning barcha bosqichlari va barcha fanlari bilan integratsiyalashgan holda amalga oshirilgandagina yuqori natija beradi [6].

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko’rsatmoqdaki, yoshlarning qadriyatlar tizimi ko’proq amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi. Shuning uchun ham talabalarni ijtimoiy loyihalar, volontyorlik faoliyati, jamoat ishlari va turli tashabbuslarga keng jalb etish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Bunday faoliyatlar orqali yoshlar jamiyat oldidagi mas’uliyatini chuqurroq anglaydi, hamkorlik ko’nikmalarini rivojlantiradi va ijtimoiy ahamiyatga ega qarorlar qabul qilish tajribasiga ega bo’ladi. Natijada qadriyatlar nazariy tushuncha sifatida emas, balki kundalik faoliyatning ajralmas qismi sifatida shakllanadi [7].

Yoshlar orasida ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlashda oilaning o’rni ham beqiyosdir. Chunki insonning dastlabki qadriyatlari aynan oilada shakllanadi. Ta’lim muassasasi va oila hamkorligining mustahkamligi yoshlar tarbiyasining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Pedagogik kuzatishlar shuni ko’rsatadiki, ota-onalar va ta’lim muassasalari o’rtasidagi hamkorlik yuqori bo’lgan hollarda yoshlarning ijtimoiy moslashuvi, axloqiy barqarorligi va ma’naviy rivojlanishi ham yuqori darajada namoyon bo’ladi [8].

Raqamli texnologiyalar asrida yoshlarning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimi shakllanishida virtual makon tobora muhim o’rin egallab bormoqda. Bugungi kunda



internet tarmog’i yoshlar uchun nafaqat axborot manbai, balki ijtimoiylashuv muhiti sifatida ham xizmat qilmoqda. Mazkur holat ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo’ymoqda. Endilikda ta’lim muassasalari o’quvchilarga faqat bilim berish bilan kifoyalanib qolmasdan, ularni axborotni tanqidiy tahlil qilishga, turli mafkuraviy ta’sirlarni baholashga va ma’naviy mezonlar asosida mustaqil qaror qabul qilishga o’rgatishi zarur. Chunki axborot oqimining keskin ortishi sharoitida insonning ma’naviy immuniteti va qadriyatlar tizimi uning shaxs sifatida barqaror rivojlanishining muhim omiliga aylanmoqda [9].

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, yoshlarning ma’naviy kamoloti va ijtimoiy faolligi o’rtasida uzviy bog’liqlik mavjud. Ma’naviy qadriyatlarga ega bo’lgan shaxs jamiyat hayotida faol ishtirok etishga, jamoatchilik manfaatlarini himoya qilishga va ijtimoiy mas’uliyatni his etishga moyil bo’ladi. Aksincha, ma’naviy qadriyatlar yetarli darajada shakllanmagan shaxsda befarqlik, individualizm va ijtimoiy masalalarga loqaydlik holatlari ko’proq uchraydi. Shu sababli ta’lim tizimida qadriyatlarni shakllantirish masalasi yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish bilan birgalikda olib borilishi lozim [10].

Bugungi ta’lim amaliyotida kuzatilayotgan muhim tendensiyalardan biri shundan iboratki, yoshlar ko’pincha nazariy bilimlarni tez o’zlashtirsalar-da, ushbu bilimlarni ma’naviy mezonlar asosida amaliy faoliyatga tatbiq etishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu esa ta’lim jarayonida bilim va tarbiya uyg’unligini ta’minlash zaruratini yanada kuchaytiradi. Chunki ta’limning haqiqiy natijasi faqat bilimli mutaxassisni emas, balki o’z bilimidan jamiyat manfaatlarini yo’lida foydalana oladigan mas’uliyatli fuqaroni shakllantirish bilan belgilanadi.

Qadriyatlar masalasini o’rganishda shuni ham e’tiborga olish lozimki, zamonaviy yoshlar avvalgi avlodlarga nisbatan mutlaqo boshqa axborot va kommunikatsiya muhitida ulg’aymoqda. Natijada ularning ehtiyojlari, qiziqishlari va hayotiy qarashlari ham o’zgarib bormoqda. Shu sababli qadriyatlarni shakllantirish jarayonida an’anaviy pedagogik usullar bilan cheklanib qolish yetarli emas. Yoshlarning qiziqishlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish talab etiladi. Bunday yondashuv qadriyatlar mazmunini yoshlar tomonidan chuqurroq anglash va qabul qilish imkonini beradi.

Shuningdek, ta’lim muassasalarida tashkil etilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning mazmuni va sifati ham alohida ahamiyatga ega. Ayrim hollarda ma’naviy tarbiya bilan bog’liq tadbirlar rasmiy xarakter kasb etib qolishi natijasida ularning ta’sirchanligi pasayadi. Shu bois mazkur tadbirlar yoshlarning real ehtiyojlari va qiziqishlari asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Amaliy tajriba shuni ko’rsatadiki, talabalar bevosita ishtirok etadigan loyihalar, munozaralar, ijtimoiy tashabbuslar va ko’ngillilar harakati doirasidagi faoliyatlar ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda ancha samarali natijalar beradi.

Qadriyatlarni shakllantirish masalasining yana bir muhim jihati milliy va umuminsoniy qadriyatlar o’rtasidagi uyg’unlikni ta’minlash bilan bog’liqdir. Zamonaviy globallashuv sharoitida yoshlar bir vaqtning o’zida ham milliy madaniyat vakili, ham jahon hamjamiyatining faol a’zosi sifatida shakllanmoqda. Shu sababli ta’lim jarayonida ularda milliy qadriyatlarga sodiqlik bilan bir qatorda boshqa xalqlarning madaniyati va qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo’lish ko’nikmasini ham rivojlantirish muhim

ahamiyat kasb etadi. Bu esa bag’rikenglik, madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi [11].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari ham yoshlar ma’naviyati va qadriyatlarini rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni ijtimoiy hayotga faol jalb etish, ularning tashabbuskorligini qo’llab-quvvatlash, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va yoshlar bilan ishlashning yangi mexanizmlarini joriy etish bo’yicha olib borilayotgan ishlar ushbu yo’nalishdagi muhim qadamlar hisoblanadi. Mazkur faoliyatlarning izchil davom ettirilishi kelajakda ma’naviy yetuk va ijtimoiy faol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, zamonaviy ta’lim jarayonida qadriyatlarni shakllantirish faqatgina alohida fan yoki ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orqali amalga oshiriladigan jarayon emas. Bu ta’lim tizimining barcha tarkibiy qismlarini qamrab oluvchi kompleks pedagogik faoliyatdir. Ta’lim mazmuni, pedagog shaxsi, oilaviy muhit, ijtimoiy hamkorlik, raqamli axborot makoni va yoshlarning amaliy faoliyati birgalikda ta’sir ko’rsatgan taqdirdagina qadriyatlar tizimi barqaror shakllanadi. Shu ma’noda, zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning ma’naviy dunyosini boyitish, fuqarolik mas’uliyatini kuchaytirish va ijtimoiy faolligini qo’llab-quvvatlashdan iboratdir [12].

Muallifning fikricha, kelajakda ta’lim samaradorligini baholash mezonlari orasida o’quvchilarning ma’naviy rivojlanish ko’rsatkichlari, ijtimoiy mas’uliyat darajasi va fuqarolik faolligiga oid indikatorlar ham muhim o’rin egallashi lozim. Chunki zamonaviy jamiyat uchun nafaqat bilimli, balki ma’naviy yetuk, tashabbuskor va jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissiga ega bo’lgan shaxslarni tarbiyalash strategik ahamiyatga ega vazifa hisoblanadi [13, 14].

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, zamonaviy ta’lim jarayonida qadriyatlarni shakllantirish masalasi yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida yoshlar ongiga ta’sir etuvchi omillar sonining ortib borayotgani ta’lim tizimidan nafaqat bilim berish, balki mustahkam ma’naviy asoslarni shakllantirish vazifasini ham samarali amalga oshirishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, qadriyatlar ta’limning qo’shimcha elementi emas, balki uning mazmun-mohiyatini belgilovchi asosiy tarkibiy qism sifatida qoralishi lozim.

Maqola doirasida amalga oshirilgan tahlillar natijasida qadriyatlar shaxsning ma’naviy qiyofasi, fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy faolligi va jamiyatdagi xulq-atvorini shakllantiruvchi muhim omil ekanligi aniqlandi. Shuningdek, yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashni rivojlantirish orqali ularning ma’naviy barqarorligini mustahkamlash, turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetini kuchaytirish hamda jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissini rivojlantirish mumkinligi asoslandi.

Tadqiqot davomida ta’lim muassasalari, oila va ijtimoiy muhitning o’zaro hamkorligi qadriyatlarni shakllantirishning muhim omillaridan biri ekanligi kuzatildi. Ayniqsa, pedagoglarning shaxsiy namunasi, ta’lim mazmunining tarbiyaviy yo’nalganligi va yoshlarning amaliy faoliyatga jalb qilinishi ushbu jarayon samaradorligini oshiruvchi asosiy vositalar sifatida namoyon bo’ldi. Shu bilan birga, raqamli axborot makonining kengayishi sharoitida yoshlarning media madaniyatini rivojlantirish va axborotni

tanqidiy tahlil qilish ko’nikmalarini shakllantirish ham dolzarb vazifalardan biri ekanligi aniqlandi.

Muallifning fikricha, zamonaviy ta’lim tizimida qadriyatlarni shakllantirish masalasi ta’lim sifati ko’rsatkichlaridan biri sifatida baholanishi zarur. Chunki kelajak taraqqiyoti faqat yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan emas, balki ma’naviy yetuk, vatanparvar, tashabbuskor va ijtimoiy mas’uliyatli fuqarolarni tarbiyalash bilan ham belgilanadi. Shu bois ta’lim jarayonida qadriyatlarga asoslangan yondashuvni yanada takomillashtirish bugungi kunning muhim pedagogik vazifalaridan biri bo’lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

Birinchidan, ta’lim dasturlari va o’quv materiallarini ishlab chiqishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mazmunini zamonaviy pedagogik talablar asosida yanada chuqurroq integratsiya qilish lozim.

Ikkinchidan, ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida yoshlarning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos innovatsion loyihalar, ijtimoiy tashabbuslar hamda volontyorlik faoliyatlarini keng joriy etish zarur.

Uchinchidan, pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimida qadriyatlar pedagogikasi, ma’naviy tarbiya hamda fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga oid maxsus modullar ulushini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

To’rtinchidan, ta’lim muassasalari va oilalar o’rtasidagi hamkorlikning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish orqali yoshlarning ma’naviy kamolotiga ta’sir ko’rsatuvchi tarbiyaviy muhitni mustahkamlash lozim.

Beshinchidan, raqamli ta’lim muhitida yoshlarning media savodxonligini oshirish, ularda tanqidiy fikrlash va axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga qaratilgan amaliy dasturlarni keng joriy etish zarur.

Oltinchidan, ta’lim natijalarini baholash mezonlari tarkibiga o’quvchilarning ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas’uliyati va ma’naviy rivojlanish ko’rsatkichlarini bosqichma-bosqich kiritish istiqbolli yo’nalishlardan biri hisoblanadi.

Yettinchidan, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning qadriyatlar tizimini muntazam monitoring qilish hamda olingan natijalar asosida individual tarbiyaviy ishlarni tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Umuman olganda, ta’lim jarayonida qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan tizimli va uzluksiz pedagogik faoliyat yoshlarning ma’naviy barkamolligini ta’minlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo’shadigan shaxslar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O’zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O’zbekiston, 2021. – 464 b.
2. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. O’RQ–637-son. 2020-yil 23-sentabr.
3. UNESCO. *Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education*. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 186 p.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi to’g’risidagi PF–60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.



5. Musurmonova O. *Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi*. – Toshkent: O’qituvchi, 2018. – 256 b.
6. Umarov B. Oliy o’quv yurtida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ijtimoiy faollikni oshirishning pedagogik asoslari // *Pedagogik mahorat*. – 2022. – №2. – B. 21–25.
7. Mutalov S. Oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy faollik muhitini yaratish orqali talabalar liderlik qobiliyatini rivojlantirish // *Pedagogik mahorat*. – 2023. – B. 76–80.
8. Mirzaxo’jayeva D. Talabalarning ijtimoiy faolliklarini shakllantirish omillari va mezonlari // *PEDAGOGS International Research Journal*. – 2023. – B. 90–95.
9. Bauman Z. *Globalization: The Human Consequences*. – New York: Columbia University Press, 1998. – 136 p.
10. Castells M. *The Rise of the Network Society*. 2nd ed. – Oxford: Blackwell Publishing, 2010. – 597 p.
11. Delors J. *Learning: The Treasure Within. Report to UNESCO of the International Commission on Education for the Twenty-first Century*. – Paris: UNESCO Publishing, 1996. – 312 p.
12. Ergasheva M. Improving Students' Social Activity Skills and Implementing It in Practice // *EXCELLENCIA: International Multi-disciplinary Journal of Education*. – 2023. – P. 187–192.
13. Raxmanova M.Q. O’quvchilar ijtimoiy faolligini oshirish – ijtimoiy zaruriyat sifatida // *Academic Research in Educational Sciences*. – 2021. – Vol. 2, Issue 4. – B. 492–497.
14. Sherazi S.A., Khan F.M. Developing High Order Competencies in Students Through the Integration of Research-Oriented Activities // *Journal of Asian Development Studies*. – 2025. – Vol. 14, Issue 2. DOI: 10.62345/jads.2025.14.2.28.

Foydalanilgan internet manbalar

15. <https://www.unesco.org>
16. <https://lex.uz>
17. <https://cyberleninka.ru>
18. <https://www.researchgate.net>